

**ABU NASR FAROBİY ASARLARIDA INSONIYAT MA'NAVİY
MADANIYATINING TARAQQIYOTI****Otajonov Jahongir To'liqinjon O'g'li***Farg'ona davlat universiteti I kurs magistranti*Yoshmusikand@gmail.com

ORCID ID 0009-0007-4323-6215

Ilmiy rahbar: Qirgizov Imyamin*Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va
madaniyat kafedrasi dotsenti, p.f.n*

Annotatsiya: Ushbu Maqolada Abu Nasr Farobiyning inson xulq – atvori shakllanishida tarbiyaning o'rni va ma'naviy madaniyatining taraqqiy etishi haqidagi falsafiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y berayotgan jarayonlarni qiyoslash asosida mavzuning dolzarb muammo ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Farobiy, axloq, odob, ma'naviyat, axloqiy sifatlar, Madaniyat, taraqqiyot.

Аннотация: В статье рассматриваются философские взгляды Абу Насра аль-Фараби на роль образования в формировании поведения человека и развитии духовной культуры. Также было изучено, что данная тема является актуальной проблемой на основе сопоставления процессов, происходящих в общественно-политической жизни сегодня.

Ключевые слова: Образование, нравственность, этикет, духовность, нравственные качества, Культура, развитие.

KIRISH

Abu Nasr Farobiy (870–950) – Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi va falsafiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan shaxs sifatida insoniyat ma'naviy madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. U o'z asarlarida inson aqli, bilimlari va ma'naviy qadriyatlarining uzluksiz rivojlanishi, jamiyatning axloqiy va yuksalishi haqida chuqur falsafiy qarashlarni oldingi surgan. Farobiy yunon falsafasini chuqur o'rganib, uni islomiy tafakkur bilan uyg'unlashtirgan inson hisoblanadi. Jumladan, uning "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyat va insonning ma'naviy kamoloti haqidagi qarashlari, hayotning oliy maqsadi sifatida baxtga erishish yo'llari falsafiy asosda yoritilgan. U o'z asarlarida insonning ma'naviy va axloqiy yuksalishini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rsatgan va chuqur falsafiy mulohazalar yuritgan. Ushbu maqola Abu Nasr Farobiyning insoniyat ma'naviy madaniyatining

taraqqiyotiga qo'shganligi, uning falsafiy qarashlari va asarlarining bugungi kun uchun ahamiyati tahlili.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'rta asrlar davri falsafasining yirik namoyandasi, mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiy ijodi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina olimlar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z davriga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Xususan Abu Nasr Farobiy ijodini har tomonlama va chuqur tahlil qilib beruvchi M.M. Xayrullayev[1,2], Muhiddinova F [8] kabi faylasuflarning asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.¹

Insonni dunyoni bilib olishida faol aql (al-aql al-faol) ishtirok etadi. U his tuyg'u ma'lumotlarini tafakkur uchun yetkazadi. Tafakkur chuqur va har tomonlama bilimga olib boradi. Pirovardida, u dunyo to'g'risidagi barcha bilimlar bilan boyib, abadiylikka olib keladi. Faol aql inson bilan birinchi sabab o'rtasida vositachi sifatida xizmat qiladi. Birinchi sabab uning o'ziga ham taalluqlidir. Faol aql badanda joylashgan ruh bilan bog'langan, va shunday qilib, ilohiy hayotning xususiyati insonga o'tadiki, uning bilimlari aqliy kuch timsolida abadiylikka qadam qo'yadi. Farobiy mantiqiy tizim kulliyotning asoschisi bo'lib, u tufayli alohida unvon bo'lgan «al-Mantiqiy» laqabini olgan. U Arastuning mantiq sohasidagi barcha asarlariga sharhlar yozgan. Bundan tashqari, uning o'zi ham mantiq bo'yicha ko'plab asarlarning muallifidir. Farobiy mantiqda ilmiy bilimning usulini ko'rdi. Mantiq fikriy jarayonning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Kategoriyalar, ya'ni aql bilan tushuniladigan mohiyatlar bilan ish ko'radi. «Mantiq, - deb yozadi Farobiy, - qachonki falsafaning u yoki bu qismlarida qo'llanilsa, mohiyat jihatidan qurol bo'lib, uning yordamida nazariy san'at nimani qamrab olgan bo'lsa, o'shalarning barchasi haqida ishonchli bilimlarga erishtiradi».²

Farobiy inson fazilatlarini tug'ma va yashash jarayonida paydo bo'ladigan fazilatlarga bo'ladi. Olimning fikricha, tug'ma fazilatlarga insonning o'ta o'tkir zehniligi, biror narsani bilishga o'ta qobiliyatligi kiradi. Lekin tug'ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug'ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va to'g'ri yo'lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so'nib qolishi mumkin. Tug'ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba'zi kishilar tug'ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishishi mumkin.³

¹ Azimovich, S. A. (2022). ABU NASR FAROBIYNING IRODA ERKINLIGI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI. *Gospodarka i Innovacje.*, 28, 173-177.

² Al-Farabis intraductoty risolah on logic. *The Islamic Quarterly*, vol III, 3-4, 1957. – 227 b.

³ Hamidovna, M. K. (2023). FAROBIY ASARLARIDA INSONIYAT MA'NAVIY MADANIYATINING TARAQQIYOTI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 74-78.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Forobiy fikricha, inson olti bosqichda yaratilgan vujudlarning eng pastki bosqichida bo'lsa ham, tug'ma qobiliyati va quvvati bilan faol aql yordamida o'zini baland martabali mumtoz vujudga aylantira oladi. U mavjudotlar silsilasi bosqichlaridagi shunday yagona bir jinsdirki, uni o'z kuchiga ko'ra harakatdagi borliq deyish mumkin. Baxt-saodat bunday yuksak "ko'tarilish", ya'ni mumtozlik tarkibiga kirmaydi. Baxt-saodat tushunchasi "faol aqlga eng yaqin turgan narsadir", va uning ma'no-mohiyati faol aql bilan qo'shiluvda yashiringandir.⁴

Baxt-saodat faol aqlning eng yaqin bosqichiga shiddat bilan yetishishdir.⁵ Baxt saodat inson ruhining shunday kamoloti vujudiga erishishidirki, bu joyda ruh uchun moddiy tayanchga ehtiyoj qolmaydi. Bunday martabada har qanday jismdan tashkil topgan ashyolar ham o'z moddiy o'zagidan ajralib, undan abadiy mahrum holda, doimiy qoladilar. Bunday martabali joy faol aql maskani bo'lib, unga faqat irodali faoliyat orqaligina erishiladi. Baxt-saodat o'z mohiyatiga ko'ra, shunday xayrli va matlub narsadirki, inson undan boshqa yoqimliroq va ulug'vorroq narsani qo'lga kiritishi mumkin emas. Jumladan, uning "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyat va insonning ma'naviy kamoloti haqidagi qarashlari, hayotning oliy maqsadi sifatida baxtga erishish yo'llari falsafiy asosda yoritilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Al-Farobiyning ideal jamiyat yaratish taklifini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, farobiyning asarlaridan ko'zlangan asosiy maqsad insonlar qanday qilib ideal jamiyatga, ya'ni baxtga erisha olishini, eng muhimi insonlar ma'naviy madaniyatining taraqqiy etishida qanchalik muhim ekanligini yodda tutishimiz zarur.

dunyo fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Farobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko'proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko'plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan. ko'p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xayrullayev M.M. Farobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent .1963.

⁴ Forobiy. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoiho ("Arastu falsafasi va falsafaning qism vLa bosqichlari"). Muxsin Mahdi tahriri ostida "Matnlar silsilasi". –Bayrut, 1-jild, 1961. –B.128. (arab tilida).

⁵ Forobiy. Kitob al-siyosat al-madaniya ("Shahar siyosati haqida kitob"). Favzi Najjor tahriri ostida. –Bayrut, 1969. –B.36. (arab tilida)

2. Xayrullaev M. Ikkinchi muallim. Toshkent. 1975, №9
3. Hamidovna, M. K. (2023). FAROBIY ASARLARIDA INSONIYAT MA'NAVIY MADANIYATINING TARAQQIYOTI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 74-78.
4. Sultonmurod, P. (2024). ABU NASR FAROBIYNING FALSAFIY QARASHLARI VA UNING ILMIY AHAMIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(46), 84-87.
5. Jumayev, A. M., & Sultonov, A. (2023). ABU NASR FAROBIY ILMIY ME'ROSINING MILLIY MA'NAVIYATIMIZGA TASIRI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(6).
6. Qodirov, M. (2023). ABU NASR FOROBIY FALSAFASIDA YUNON FALSAFIY G'OYALARINING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(3), 124-128.
7. Azimovich, S. A. (2022). ABU NASR FAROBIYNING IRODA ERKINLIGI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 173-177.
8. Muhiddinova F. —Farobiy siyosiy – huquqiy ta'limotida qonun va qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasil. Toshkent, 2005
9. Forobiy. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoiho ("Arastu falsafasi va falsafaning qism va bosqichlari"). Muxsin Mahdi tahriri ostida "Matnlar silsilasi". – Bayrut, 1-jild, 1961. – B.128. (arab tilida).